

№	MUNDARIJA	Page
1.	YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHNING MOLIYAVIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	ПРИМЕНЕНИЕ МСФО 17 В СТРАХОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ И ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. АНАЛИЗ РЕЗЕРВОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ БАРЬЕРОВ <i>Баратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	O'ZBEKISTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	O'ZBEKISTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR <i>Mirzamatudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	ПЕРСПЕКТИВЫ И БАРЬЕРЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ (ТАКАФУЛ) В УЗБЕКИСТАНА <i>Муродова Дилдора Абдусалимовна</i>	26
10.	YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV <i>Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xolbaev Azamat Yuldashovich</i>	34
12.	ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАХОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ <i>Умарова Хуришда Олимжоновна</i>	38
13.	OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH <i>Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51
17.	ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ И НИЗКОЙ КАПИТАЛИЗАЦИИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА <i>Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	54
18.	БАНК СЕКТОРИДА ФИРИБГАРЛИККА ҚАРШИ ҚУРАШИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ ЎРНИ <i>Қозоқов Шаҳбоз Ортикбаевич</i>	57
19.	ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	61
20.	SUKUKLARNI JANON AMALIYOTIDAGA O'RNI TAHLILI <i>Shohzodbek Adxatjonov Bobirjon o'g'li</i>	64
21.	AHOЛИ ДАРОМАДЛАРИ ТАРКИБИ ВА ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ АМАЛДАГИ ҲОЛАТИНИ ТАҲЛИЛИ <i>Хожиев Жаҳонгир Душабаевич</i>	67
22.	MINTAQALARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	71

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



MINTAQUALARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

Toshaliyeva Saodat Toxirovna

Termiz davlat universiteti dotsenti,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/308

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy metodologik asoslari o'rganilgan bo'lib, hududiy rivojlanishning nazariy yondashuvlari, tahliliy uslublari va strategik yo'nalishlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini baholash, mavjud tafovutlarni aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish kabi masalalar ochib berilgan. Shuningdek, bu bo'yicha xorijiy tajribalar ya'ni, AQSh va Yevropa davlatlarida qo'llanilayotgan mintaqalarni rivojlantirish metodologiyalari o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, mintaqa iqtisodiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, metodologiya, mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasi.

Abstract: This article examines the modern methodological foundations of regional economic development, providing an in-depth analysis of theoretical approaches, analytical methods, and strategic directions for territorial development. Specifically, it addresses the assessment of regional economic potential, identification of existing disparities, efficient use of resources, and implementation of innovative approaches. Additionally, foreign experiences are studied, particularly the methodologies for regional development applied in the USA and European countries, and proposals are made for their adaptation to the conditions of Uzbekistan.

Keywords: region, regional economy, economic and social development, methodology, methodology of regional economic development.

Абстрактный: В данной статье изучены современные методологические основы экономического развития регионов, проведён глубокий анализ теоретических подходов, аналитических методов и стратегических направлений территориального развития. В частности, рассмотрены вопросы оценки экономического потенциала регионов, выявления существующих различий, эффективного использования ресурсов и внедрения инновационных подходов. Также проанализирован зарубежный опыт, а именно методологии развития регионов, применяемые в США и европейских странах, и предложены направления их адаптации к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: регион, региональная экономика, экономико-социальное развитие, методология, методология экономического развития регионов.

Kirish (Введение/Introduction)

Bugungi globallashuv va bozor munosabatlari sharoitida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, ijtimoiy-iqtisodiy tenglikka erishish va milliy raqobatbardoshlikni oshirish bevosita hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq va samarali ro'yobga chiqarishga bog'liq. Shu bois, mintaqalarni rivojlantirishning zamonaviy metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasi bu hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy, resurs va innovatsion salohiyatini baholash, tahlil qilish hamda ularni integratsiya qilish orqali rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar tizimidir. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali mintaqalardagi mavjud tafovutlar, infratuzilma muammolari, kadrlar taqchilligi va investitsiyaviy nomutanosibliklar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, mintaqalar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashuvi nafaqat hududiy tengsizlikni kuchaytiradi, balki, umumdavlat iqtisodiy barqarorligiga ham xavf soladi. Shu boisdan, mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar zarurati oshib bormoqda.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Mamlakatlar yoki turli mintaqalar kesimida barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari intitsional nazariy-yalardagi tashkiliy masalalarga bag'ishlangan ilmiy qarashlarda ham o'z aksini topadi. Ushbu nazariyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlashning zamonaviy nazariyalarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi [1].

A.T. Umarov o'z tadqiqotlarida mintaqalarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmini taklif etgan.

Bunda asosan hududlarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi ijtimoiy, iqtisodiy, innovatsion va ekologik omillarga bog'liqligi ta'kidlangan [2].

B.B.Mullabayevning fikricha, hududiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalari muvozanatsiz mintaqaviy siyosatni bilan tavsiflanadi. Bu byudjet tizimi barqarorligining pasayishi, ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi va iqtisodiy makonning mumkin bo'lgan parchalanishi bilan bog'liq bo'lgan butun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdidlarning butun majmuasini keltirib chiqaradi. Hozirgi sharoitda hududlarning rivojlanish darajalaridagi tafovutning ortib borishi tahdidini tenglashtirish asosan nomutanosiblikni bartaraf etishga, mintaqalararo tabaqalanishni shunday darajaga tushirishga qaratilgan muvozanatli mintaqaviy siyosatda strategiyasini shakllantirish mexanizmining samaradorligi bilan belgilanadi. Ham alohida hududlarning ham butun iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun xavfsiz [3].

A.X. Burxanovning fikrigacha, mintaqada rejalashtirish obekti o'z hududida joylashgan sanoat kompleksidir va rejalashtirish maqsadi ishlab chiqarish ehtiyojlariga va ijtimoiy masalalarni hal etishga asoslangan holda ularning samarali va mutanosib rivojlanishini ta'minlashdan iborat [4]. Boshqacha aytganda, mintaqalarning iqtisodiy salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarining joylashuvidir.

Fikrimizcha, mintaqalarni barqaror iqtisodiy rivojlantirish nazariyasi ko'p qirrali bo'lib, unda institutsional muammolardan tortib innovatsion siyosat, resurs salohiyati va hududiy tafovutlarni kamaytirishgacha bo'lgan omillar uyg'un holda ko'rib chiqilishi lozim. Bu esa kompleks, zamonaviy va strategik yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishga

oid asosiy metodologiyalar, nazariy yondashuvlar, xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilib, tahlillari bayon etilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Dunyo davlatlarining iqtisodiy-geografik jihatdan farqli bo'lganligi sababli ham mintaqaviy iqtisodiyotlarning shakli, tarkibi va rivojlanish darajalari ham har xildir.

Bu har bir mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning metodologik asoslari ham har xilligini anglatadi. Xususan:

AQShning Iqtisodiy rivojlanish ma'muriyati (EDA) tomonidan ishlab chiqilgan "CEDs" modeli mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv quyidagilarga asoslanadi [5]:

- mahalliy manfaatdor tomonlarning ishtiroki;
- hududiy salohiyat va zaifliklarni tahlil qilish;
- barqarorlik va iqtisodiy chidamlilikni oshirishga qaratilgan strategiyalar.

Umuman olganda, CEDs modeli mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish uchun strategik rejalashtirish jarayonini ta'minlaydi.

George I. Trez tomonidan ishlab chiqilgan "Regional Economic Modeling" yondashuvi transport, energetika, fiskal va ekologik siyosatlarining mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sirini prognoz qilish uchun tizimli modellashtirishni qamrab oladi. Shuningdek, ushbu yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi [6]:

- mintaqaviy iqtisodiy o'zgarishlarni prognoz qilish;
- siyosatlarining hududiy ta'sirini tahlil qilish;
- mahalliy va davlat siyosatini muvofiqlashtirish.

Mazkur yondashuv mintaqaviy iqtisodiy siyosatni tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

"Brookings Institution" tomonidan mintaqaviy iqtisodiy transformatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy funksiyalar va strategiyalar tahlil qilingan bo'lib, ushbu tadqiqot quyidagilarni o'z ichiga oladi [7]:

- iqtisodiy va ishchi kuchi rivojlanish tizimlarining muvofiqlashtirilganligi;
- hududiy salohiyat va imkoniyatlarni aniqlash;
- mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Bu yondashuv mintaqaviy iqtisodiy transformatsiyani chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, "Shift-Share Analysis" metodi mintaqaviy iqtisodiy o'sish yoki pasayishning sabablarini aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi [9,10]:

- milliy, sanoat va mintaqaviy omillarni ajratish;
- hududiy raqobat ustunliklarini aniqlash;
- iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qilish.

Bu tahlil mintaqaviy iqtisodiy o'zgarishlarning sabablari va natijalarini aniqroq ifodalashda qo'l keladi.

Юкорида келтирилган mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning metodologik ёндашувларини мамлакатимиз шароитида қўллаш лозим. Бунинг учун қўйидагиларни тақлиф этиш мумкин. [8]

O'zbekistonda "CEDs" modelini qo'llashning asosiy yo'nalishlari:

1. Hududiy ishtirokchilik asosidagi rejalashtirish tizimini joriy etish:

- har bir viloyat, tuman va shahar darajasida mahalliy hokimiyatlar, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy muassasalar va fuqarolarning ishtirokida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;
- qabul qilinadigan qarorlarning "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida shakllanishini ta'minlash.

2. Hududlar bo'yicha "SWOT" tahlillarini amaliyotga keng joriy qilish:

- har bir hududning kuchli (Strengths), zaif (Weaknesses), imkoniyat (Opportunities) va xavf (Threats) tomonlarini chuqur tahlil qilish;
- mintaqaning real iqtisodiy salohiyati asosida ustuvor yo'nalishlarni aniqlash.

3. Barqarorlik va inklyuzivlikka qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish:

- ijtimoiy himoyani kuchaytirish, bandlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan islohotlarni hududiy strategiyalarga kiritish.

4. Innovatsion va raqamli yechimlarni jalb etish:

- hududiy rivojlanish dasturlarida raqamli infratuzilma, startaplar, texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan integratsiyani kuchaytirish;

- "Smart hudud" yondashuvlarini bosqichma-bosqich joriy etish.

5. Monitoring va baholash mexanizmlarini shakllantirish:

- har bir strategik rejaning bajarilishi bo'yicha aniq natijaviy ko'rsatkichlar (KPI)ni belgilash;

- natijalarning jamoatchilik uchun ochiqligini ta'minlab, doimiy monitoring olib borish.

6. Mahalliy daromad va investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini mustahkamlash:

- har bir hududning iqtisodiy strategiyasi mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirishga xizmat qilishi kerak;

- tashqi va ichki investorlar uchun aniq, ishonchli hududiy investitsiya muhitini yaratish.

7. Hududlararo koordinatsiyani kuchaytirish:

- har bir hudud faqat o'z ehtiyojlariga emas, balki, mintaqaviy makroiqtisodiy uyg'unlikka ham e'tibor qaratish;

- iqtisodiy klasterlar va kooperatsiya mexanizmlarini shakllantirish shular jumlasidan. [9]

Umuman olganda, mamlakatimiz sharoitida "CEDs" modelining elementlarini milliy rivojlanish dasturlariga integratsiyalash - mintaqalararo tafovutlarni kamaytirish, hududiy resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida "CEDs" modelini qo'llashdan kutiladigan asosiy natijalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mintaqaviy siyosatning tizimli va ishtirokchilik asosida shakllanishi;

- hududiy salohiyatdan to'liq va oqilona foydalanish;

- raqamli va innovatsion iqtisodiyotga asoslangan yondashuvni joriy etish. Masalan, "Smart hudud" tamoyillari asosida raqamli infratuzilmalar va innovatsiyalar hududlarda tatbiq etiladi;

- investitsiya muhitining yaxshilanishi va mahalliy iqtisodiyotning faollashuvi;

- hududlararo tafovutlarning kamayishi;

- ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi;

- strategik monitoring va baholash tizimi orqali samaradorlikning oshishiga erishish mumkin. [10]

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Mazkur tadqiqot doirasida o'rganilgan CEDs modeli, "Regional Economic Modeling" yondashuvi, "Brookings Institution" tahlillari va "Shift-Share Analysis" kabi metodologik yondashuvlar asosida mamlakatimiz mintaqalarini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni taklif etish mumkin:

- mahalliy manfaatdor tomonlarning faol integratsiyasi uchun doimiy platforma yaratish. YA'ni, har bir hududda "Mintaqaviy taraqqiyot kengashi"ni tuzish, unda biznes vakillari, universitetlar, mahalliy hokimiyat va fuqarolik jamiyati ishtirokini ta'minlash;

- mintaqaviy iqtisodiy modellashtirish tizimini joriy qilish - O'zbekiston uchun moslashtirilgan "Regional Simulation Modeling Platform" ishlab chiqilish lozim. Masalan, REMI yoki CGE modellari shaklida;

- hududiy transformatsiyani boshqarish uchun kompleks ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish. Masalan, ishchi kuchi, innovatsion salohiyat, ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlari;

- hududiy iqtisodiy transformatsiyani rag'batlantirish uchun maxsus fond tashkil etish. Xususan, "Hududiy innovatsiyalar va transformatsiya fondi" tashkil etilib, startaplar, kichik biznes, yosh tadbirkorlar va agroklasterni moliyalashtirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq. [11]

Umumiy xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz sharoitida ushbu metodologik yondashuvlarni tatbiq etish orqali mintaqaviy islohotlarni maqsadli va samarador yo'naltirish, hududlararo nomutanosiblikni kamaytirish, innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun transformatsiyani tezlashtirish, mahalliy tashabbuslarni rag'batlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash kabi natijalarga erishish mumkin.

Bunda, mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishda metodologik yondashuvlar nafaqat nazariy asos, balki, amaliy vosita sifatida qaralishi lozim. Bu esa O'zbekiston mintaqalarining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития: Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1982. – 401 с.
2. Umarov A.T. Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, sentyabr. No9-son. 104 b.
3. Mullabayev B.B. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini shakllantirish mexanizmlarini nazariy masalalari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024, 4(01), 107-114 b.
4. Burxanov A.X. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. Ziyonashr-matba. Guliston 2021. 538 b.
5. Saidov A., Karimov B. Mintaqalarning iqtisodiy salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar // Journal of Scientific Research and Technology, 2024, 57 b.
6. George I. Treyz. Regional Economic Modeling: A Systematic Approach to Economic Forecasting and Policy Analysis. Springer Book Archive, https://link.springer.com/book/10.1007/978-94-017-2874-4?utm_source=chatgpt.com
7. Cheng, Shaoming (2 February 2010). "Business cycle, industrial composition, or regional advantage? A decomposition analysis of new firm formation in the United States". *The Annals of Regional Science*. 47 (1): 147–167.
8. Shi, Chun-Yun; Yang Yang (2008). "A Review of Shift-Share Analysis and its Application in Tourism". *International Journal of Management Perspectives*. 1 (1): 21–30.
9. <https://www.eda.gov/resources/comprehensive-economic-development-strategy>
10. <https://www.brookings.edu>
11. Баратова Динора Алишеровна. (2025). «Применение мсфо 17 в страховой системе узбекистана: перспективы внедрения и потенциальные проблемы. Анализ резервов и законодательных барьеров.» *Insurance Market of Uzbekistan*, 2(3), 6–9. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/288.